PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

QADIMGI TURKIY TILGA XOS MAISHIY TERMINLARNING FONETIK XUSUSIYATLARI

Nurchayeva Malika Babamurod qizi
Qarshi davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish(o'zbek) tili 2-kurs magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20492447

Annotatsiya : Ushbu maqolada turkiy tillardagi maishiy terminlarning fonetik xususiyatlari tahlil ostiga olingan bo'lib, tadqiqot mobaynida qadimgi va hozirgi turkiy tillarda qo'llanilgan maishiy terminlarning tovush tarkibi, fonetik o'zgarishlari, singarmonizm hodisasi hamda fonetik moslashuv jarayonlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Jumladan, maishiy leksikaga oid birliklarning turkiy tillar taraqqiyoti jarayonidagi fonetik taraqqiyoti qiyosiy-uslubda o'rganilib, ularning umumturkiy va milliy xususiyatlari ochib berilgan.
Kalit so'zlar: turkiy tillar, maishiy terminlar, fonetik xususiyat, singarmonizm, tovush o'zgarishi, leksik birlik, tarixiy fonetika, qiyosiy tilshunoslik.

Аннотация: В данной статье анализируются фонетические характеристики повседневных терминов в тюркских языках, а в ходе исследования научно рассматриваются звуковой состав, фонетические изменения, феномен сингармонизма и процессы фонетической адаптации повседневных терминов, используемых в древних и современных тюркских языках. В частности, в сравнительном порядке изучается фонетическое развитие повседневных лексических единиц в процессе развития тюркских языков и выявляются их общие тюркские и национальные особенности.
Ключевые слова: тюркские языки, повседневные термины, фонетические особенности, сингармонизм, тождественность звуков, лексическое единство, историческая фонетика, сравнительная лингвистика.

Abstract: This article analyzes the phonetic characteristics of everyday terms in Turkic languages, and during the research, the sound composition, phonetic changes, synharmonism phenomenon, and phonetic adaptation processes of everyday terms used in ancient and modern Turkic languages are scientifically covered. In particular, the phonetic development of everyday lexical units in the process of development of Turkic languages is studied in a comparative manner, and their general Turkic and national characteristics are revealed.
Keywords: Turkic languages, everyday terms, phonetic features, synharmonism, sound identity, lexical unity, historical phonetics, comparative linguistics.

Jahon tilshunosligida tilning kelib chiqish taraqqiyoti, qadimgi davr manbalarining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish muhim tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi. Til – insoniyat taraqqiyotining eng muhim belgilaridan biri bo'lib, u jamiyat hayotining barcha jabhalarini, xususan, maishiy turmush tarzini ham o'zida aks ettiradi. Har qanday tilning leksik boyligi xalqning kundalik hayoti, urf-odati, turmush sharoiti va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Borliq hodisalarining ongdagi maxsus ifodaviy shaklga kirishi va turg'unlashuvi terminlarni vujudga keltiradi. "Termin kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o'rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtayi nazaridan bilish hamda o'zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so'z yoxud birikmadir." Terminologik adabiyotlarda ta'kidlanganidek:

1)termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo‘lgan ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, so‘z yoki birikmadir;

2) termin – aniq narsa-predmet, ashyo, mavhum obyektiv maxsuslashtirilgan nomidir;

3) termin uchun muayyan ta’rif (definitsiya) zarurki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchadan birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda, ma’lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo‘l qo‘yuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq ko‘rsatishi mumkin. Til terminologik sistemalari birliklari umumiy xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, sohaviy xoslanganligi bilan ham xarakterlanadi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy-siyosiy, tabiiy, aniq fanlar va texnik-texnologik sohalarda qo‘llanuvchi terminlar alohida belgilari bilan ajralib turadi. Maishiy terminlarning lingvistik tadqiqi masalasida M. Asomiddinov, Ц.Б.Базарова, Л.Х.Гафурова, Т.Турсунова, Ш.Усманова kabi olimlar tomonidan tadqiq etilga. [1: 144] O Qadimgi turkey tilga mansub maishiy terminlarning leksik-semantik xususiyuatlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarni olib borishgan.

Mahmud Koshg‘ariy kashf qilgan ayrim fonetik hodisalar bizgacha bo‘lgan uzoq muddatda qayta-qayta tadqiq qilinsa ham, ularning aksariyati o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Chunonchi, olim assimilyatsiya haqida shunday yozgan edi: “d” jarangli undoshi p, t, ch, k jarangsiz undoshlari bilan yonma-yon kelganda, o‘sha tovushga singib, “t”ga aylanadi: topti, yetti, ochti, ekti kabi” .[2: 28] O. Nutq tovushlarining reliktiv xususiyatlari Mir Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida o‘z aksini topgan edi.[3: 114] O. Hozirgi o‘zbek tilida omonim hisoblanadigan bir qancha so‘zlar orasidagi ma’no rang-barangligini tovushlar orasidagi fonologik qiymat yuzaga keltirishini buyuk “asadayn”ning o‘zi sharh etgan. O‘zbek tilshunosligida tarixiy fonetikaning eng mukammal tadqiqi ustoz professor H.G‘.Ne’matovning “O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi” .[4: 14] O monografiyasida sharh etilgan. Olim fonetika va fonologiyani qiyosan talqin qilib, fonetikada tovushlarning akustik-artikulatsion, ya’ni hosil bo‘lish va talaffuz kabi tabiiy (fiziologik) xususiyatlari, urg‘u va ohangning moddiy (fizik) belgilari (miqdori, kuchi), tovushlarning o‘zaro ta’siri asosida o‘zgarishlari o‘rganilishi, fonologiyada tovush, urg‘u va ohangning ijtimoiy vazifasi – ma’no farqlash xususiyati o‘rganilishi ochib berilishi, ya’ni tilda fonologik qiymatga ega bo‘lgan har bir hodisa, albatta, ma’lum bir ijtimoiy qimmatga – mano farqlash xususiyatiga ega bo‘lishi lozimligini ochib beradi. Olimlarning yuqoridagi ilmiy qarashlari qadimgi turkiy tildagi maishiy terminlarni fonetik jihatdan tadqiq etish uchun muhim nazariy asos vazifasini o‘taydi. Chunki maishiy terminlar tarkibida qadimgi turkiy tilning fonetik xususiyatlari, tovush o‘zgarishlari va tarixiy taraqqiyot bosqichlari o‘z aksini topgan. Jumladan, qadimgi turkiy tilda qo‘llangan ayrim maishiy terminlarda tovush almashinuvi va fonetik variantlilik kuzatiladi. Masalan,***Товок*** — o‘zbek tilida (Узб.), *табак* (Боровков, ЛТ, 280), *табак* — taomga doir so‘zlar tarkibida kelganida qayd qilingan. (Назарова, Бобурнома, 135) fonetik formada lotin tilida (Ибатов, XIII, 195), *табак* (коз.), *табак* (кирг.), *табак* (ку.), *табак* (туркм.) fonetik variantlari regional tillarda tovoq so‘zining o‘ziga xos xususiyatlari va fonetik shakllanishi, o‘zbek uyg‘ur tillaridan bošqa turkiy tillarda qayd qilinib, fonetik varianti tabaq shaklida saqlanib qolinganidir.Tovoq so‘zi o‘z ma’no funksiyalari bilan regional turkiy tillarda xilma-xil bo‘liši bilan bir-biridan farqlanadi. Shu o‘rinda tovoqning izohi ham xilma-xildir. Masalan, o‘zbek tilida *товок* — sopoldan qilingan chuqur katta idish: *Лаган*, *чукур катта сопол товок* (palov učun) (Ўзрст, 439).

Qoshiq— ovqatni yeyish yoki ichish uchun ishlatiladigan ro‘zg‘or buyumi. Bu nom o‘z ma’no funksiyasi bilan qadimiy so‘zlardan bo‘lib, tarixiy lug‘atlarda қашуқ, қашиқ, қошуқ (ДТС, 432), қошиқ — қашиқ, қошиқ (МК, I, 364), ғашиқ — қашуқ (Наджип, 161) formalarda kelganligi qayd qilinadi. Bu nom regional turkiy tillarda қошиқ (ўзб.), қошуқ (уйғ.), қасық (қаз., ққ.), қашық (қирғ.), қашиқ (туркм. китобий) fonetik variantlarida shakllangan. Қошиқ nomining tarqalish doirasi ancha kengdir. Jumladan, abazin tilida *қвашикъ* formasida uchraydi, kabard-cherkes tillarida кхъашыкъ, кхъашық fonetik variantlarida shakllanganda keladi.

Kuv — sutni chayqatib yog‘ini olish uchun ishlangan silindr shaklidagi uzun yog‘och idish va uning uchi yo‘g‘onlashgan tayoqsimon sopi pishiq, (Ўтил, I, 401). Кув o‘z ma’no funksiyasi bilan qadimiy сўзlardan bo‘lib, u кўр — катта сопол идиш (ДТС, 328), кўб — идиш (МК, III, 264), кўб — идиш (Аттуҳфа, II, 329), кўб — катта идиш (Қуришканов, 152), кўб, кўв — шароб идишни (Бл, 229), кўб кўз — сопол идиш (МА, 405), куб (туркм.) хум, куб (Таржумон,103), кўб, кўп — май қўйиладиган катта сопол идиш, хум (НАЛ, 320) kabi formalarda va ma’nolarda qayd qilingan.Regiondagi tillarda кув (ўзб.), күп (уйғ.), күб (қаз., қирғ.туркм.) shakllarida uchrab turli ma’nolarni anglatadi.

Bo‘yra eski o‘zbek va turkiy tillar yodgorliklarda *Бўйра* (НАЛ ,141) *буре* –bo‘yra (Ш. Сулаймонов, 80) *буре* –bo‘yra (келурнома, 83) formalarida uchrashi qayd qilingan .Bo‘yra so‘z birligi hozrgi zamon turkiy tillarda *Бўйра* (uzb.) *Бо(ў)ра (uyg.’) Бойра (qozq,turkman,q.q) Бойро (qirg‘) fonetik variantlari ma’lum* .

Umuman, qadimgi turkiy tildagi maishiy terminlar tilning tarixiy taraqqiyoti, xalqning turmush tarzi hamda madaniy hayotini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu terminlarning fonetik xususiyatlarini tahlil qilish orqali qadimgi turkiy tilga xos tovush tizimi, fonetik o‘zgarishlar, tovush almashinuvi va variantlilik holatlari aniqlanadi .Shuningdek, maishiy terminlar tarkibida qadimgi turkiy tilning fonetik me’yorlari va til taraqqiyoti jarayonida yuz bergan o‘zgarishlar o‘z ifodasini topgan. Bu esa mazkur terminlarning nafaqat leksik birlik, balki tarixiy-fonetik manba sifatida ham ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Demak, qadimgi turkiy tildagi maishiy terminlarning fonetik jihatdan o‘rganilishi turkiy tillar tarixiy fonetikasi va leksikologiyasini tadqiq etishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. –Тошкент: Фан, 1981. – 114 б.,
2. Базарова Ц.Б. Лексика женской одежды у Агинских бурят // Этно-культурная лексика монгольских языков. –Улан-Удэ, 1994. – С. 139-144.адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.,
3. Гафурова Л.Х. Бытовая лексика современного узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1991. – 134 с.,
4. Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. – Тошкент: Фан, 1978., Усманова Ш. “Ўчоқ” сўзининг этимологияси ҳақида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари / Илмий мақолалар тўплами. III. – Тошкент, 2006. – Б. 100-103.
5. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент, 1962. II т., − Б. 28.
6. Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. Нашрга тайёрловчилар: Порсо Шамсиев ва Ойбек. – Тошкент: Ўздавнашр, 1948. – Б. 114.
7. Неъматов Ҳ.Ғ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.